

Qoraqalpog'istonni rivojlantirish bo'yicha uch yillik dastur amalga oshiriladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 10-noyabr kuni Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari 2-oktabr kuni Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesining navbatdan tashqari sessiyasida hududning har bir shahar va tumanini rivojlantirish, aholi hayotini yaxshilashga qaratilgan vazifalarni belgilab bergan edi. Shu maqsadda yangi taraqqiyot dasturini ishlab chiqish uchun 37 mingta xonadon va tadbirkorlik sub'ektlari o'rganilib, dolzarb masalalar aniqlandi.

Ushbu tahlillar asosida Qoraqalpog'iston Respublikasini 2020-2023-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Dasturga muvofiq, hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida yangi tadbirkorlik sub'ektlariga qator soliq imtiyozlari berilmoqda. Bundan tashqari, rivojlanishdan ortda qolayotgan Taxtako'pir, Bo'zatov, Shumanay tumanlari hamda 45 ta sharoiti og'ir mahalla va ovullarda sanoat va xizmat ko'rsatish yo'nalishida yangi tashkil etilgan korxonalar ham imtiyozlarga ega bo'lmoqda.

Videoselektor yig'ilishida mazkur dasturda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini tizimli tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi.



Xususan, 17 ta tuman va shaharning o'ziga xos "o'sish nuqta"laridan kelib chiqib, 2020-2022-yillarda umumiy qiymati 12 trillion 300 milliard so'm bo'lgan 1 ming 359 ta investitsiya loyihasi shakllantirilgan. 523 million dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, qariyb 20 mingta yangi ish o'rinlari yaratish mo'ljallangan.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga "xomashyodan tayyor mahsulotgacha" tizimida ishlovchi 27 ta sanoat klasterini tashkil etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Dasturda qishloq va suv xo'jaligi bo'yicha ham qator vazifalar belgilangan. Paxta yetishtirish bekor qilinayotgan 12 ming gektar maydonda eksportbop sabzavot ekinlarini joylashtirish, foydalanishdan chiqqan 36 ming gektar yerni qayta o'zlashtirish, "Qoraqalpoq-agro" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish shular jumlasidandir. Kunjut yetishtirish va naslli qoramollar sonini ko'paytirish, Xo'jayli tumanini chorvachilik va meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, yiliga 2,5 milliard kub metr suvni tejash choralari ko'riladi. Buning uchun 14 ming 200 kilometr kanallarni ta'mirlash, 45 ming gektar ekin maydonida suv tejoychi texnologiyalar joriy etish, suv ajratish nuqtalarida hisoblagichlar o'rnatish, 38 ming gektar maydonni lazer yordamida tekislash juda muhim.

Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Suv xo'jaligi vazirligining bu boradagi vazifalari qayd etib o'tildi.

Dasturda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan Taxtako'pir, Bo'zatov, Shumanay tumanlari bo'yicha alohida choralar nazarda tutilgan. Xususan, bu tumanlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash uchun 2021-2023-yillarda 409 milliard so'mlik 172 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan.

Shuningdek, sharoiti og'ir 45 ta mahalla va ovulda umumiy qiymati 2 trillion 340 milliard so'm bo'lgan 150 ta loyiha amalga oshiriladi. Bu loyihalarga beriladigan kreditlarning foiz xarajatlari Markaziy bank asosiy foiz stavkasining 50 foizi miqdorida Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan

kompensatsiya qilinadi.

Davlatimiz rahbari yangi korxonalar tashkil etib, aholini ish bilan ta'minlash, oilalarni kambag'allikdan olib chiqishga ko'maklashish muhimligini ta'kidladi.



Yig'ilishda Qoraqalpog'iston tuman va shaharlari qiyofasini yangilash, yo'llar va uy-joylar qurish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Keyingi 3 yilda 856 kilometr avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash, 2 ming 500 kilometr ichimlik suvi tarmoqlari qurish hisobiga ta'minot darajasini 70 foizga yetkazish maqsadi ta'kidlanib, mas'ullar birlashtirildi. 7 ming kvartirali 235 ta, yosh oilalar va kam ta'minlangan aholi uchun 2 ming 84 kvartirali 36 ta arzon ko'p qavatli uylar qurilishi aytiladi.

Nukus shahrini renovatsiya qilish, zamonaviy infratuzilma ob'ektlari qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'rib chiqildi.

Sog'liqni saqlash sohasi haqida so'z borar ekan, qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalarni to'liq raqamlashtirish, tibbiyot brigadalari tashkil etib, aholini skrining tekshiruvlaridan o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Maktablarda darslarni yangi metodika asosida tashkil etish, pedagoglarni shu bo'yicha malakasini oshirish vazifasi qo'yildi.

- Umuman olganda, Qoraqalpog'istonda ishlarni yangicha tashkil etish va nazorat tizimi o'rnatiladi. Buning uchun Oliy Majlis Senatida Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish, aholi hayotini yaxshilash va daromadlarini oshirish bo'yicha yangi qo'mita tashkil etildi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda mutasaddilar dastur ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari yuzasidan axborot berdi.



Manba